

9-10-2019

## TECHNOLOGICAL APPROACH TO INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION

Jamshid Rustamovich Qorabayev  
*Namangan state university teacher*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Qorabayev, Jamshid Rustamovich (2019) "TECHNOLOGICAL APPROACH TO INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 6 , Article 65.  
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss6/65>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

## TECHNOLOGICAL APPROACH TO INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMGA TEKNOLOGIK YONDOSHISH USLUBLARI**

Qorabayev Jamshid Rustamovich  
Namangan davlat universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limga texnologik yondoshish, loyihalash va uning uslublari, boshlang'ich sinf darklarida didaktik o'yinlardan foydalanishning maqsad, vazifalari va uning uslublari keng yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, loyiha, pedagogik texnologiya, uslub.*

## **TECHNOLOGICAL APPROACH TO INTEGRATED EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION**

Qorabayev Jamshid Rustamovich  
Namangan state university teacher

***Abstract:** The article focuses on technology-based approach, design and application of integrated teaching methods, focusses on the goals and objectives of using didactic games in the Elementary classroom lessons and its methods in primary education.*

***Key words:** Integration, project, pedagogical technology, style.*

## **МЕТОДЫ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИЗУЧЕНИЙ ИНТЕГРАЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

Карабаев Жамшид Рустамович

***Аннотация:** В статье широко освещена методы, проектирование и способы технологических изучений, широко освещены цели, задачи и методы пользования дидактическими играми в начальных классах.*

***Ключевые слова:** Интеграция, проект, педагогическая технология, метод.*

Mamlakatimizda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi, mashg'ulotlarning rang-barang, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan birga o'quv materialining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Sir emaski, ayni vaqtda maktablarimizda an'anaviy o'qitish usuli keng tarqalgan. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topayotganligini, qator pedagogik tajribalar ommalashayotganligi ko'rishimiz mumkin. Bu bilan rivojlangan davlatlar miqiyosiga ta'lim jarayonini yetkazish, kelgusida yoshlarni chet davlatlarda ta'lim olishga, hamda tajriba almashuvchi shaxslar qilib voyaga yetkazishga erishishni ko'zda tutadi. Buning uchun yoshlarni boshlang'ich sinfdanoq tayyorlashimiz, mukammal bilim egasi etib tarbiyalashimiz lozim. Darhaqiqat, yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning roli beqiyosdir. Ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar jahon ta'limi

andozalari talablariga javob berishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda yoshlarni Vatan va milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya sohasida rejalashtirilgan va kutilgan natijalarga erishishni kafolatlash o'ta muhimdir. [1]

**Pedagogik texnologiya** – bu o'qitish va uni takomillashtirish vazifasini o'z oldiga qo'yuvchi tashkiliy – texnikaviy tadbirlar, shaxs, ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda yaratish va joriy etish tizimidir. Bundan ko'rinadiki, pedagogik texnologiya o'ziga xos “tizimli yondashuv”ga qurilgan tadqiqot usulidir. Aynan “tizimli yondashuv” ta'limda pedagogik texnologiyani boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, nazorat va uning natijalarini o'zaro aloqada, bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash dolzarb muammodir.

**Loyihalash** – ta'limning mazmun qismini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, o'qitishning umumiy va aniq maqsadlari, o'tiladigan fanlar majmuasini aniqlash, har bir fanning mazmuni, soatlar hajmi va boshqalarni rejalashtirishdir. Ta'lim beruvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkilot boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda o'qituvchining ish usullari va shakllari chegaralanmaydi, ayni paytda davlat ta'lim standartlari talablari orqali o'qituvchining ta'lim jarayonini tashxis qilishga va umuman o'qitish jarayonini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyati jadallashadi.

Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalash o'qituvchi oldiga ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ta'lim maqsadini aniqlash;
- ta'lim vazifasini aniqlash;
- ta'lim berish predmetini ishlab chiqish;
- ta'lim mazmunini aniqlash;
- o'quv yuklamasi orqali uning, ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga, yoshiga moslik darajasini va o'zlashtirish shaklini loyihalash;
- ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va vositalari (o'quv qo'llanmalar, ta'limning texnologik vositalari-axborot texnikalari)ni tayyorlab olish;
- o'quv jarayonining moslashuv omillarini joriy etishda o'rganilayotgan fanning mazmuniga qo'shimcha ravishda kiritish mo'ljallangan vaziyatli matnlar, fan-texnika yutuqlari hamda o'rganilayotgan fanga tegishli zamonaviy ishlab chiqarishdagi ma'lumotlar va testlar tayyorlash;
- shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy xislatlar va ma'naviy – axloqiy fazilatlarni egallash sari yo'naltirilgan tavsiyalar va mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- ta'lim berish natijasi va uning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonlariga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash sifatini xolisona baholash uchun test vazifalarini tayyorlar;
- darsda va darsdan tashqarii vaqtlarda beriladigan mustaqil ta'lim, mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, ularning tizimi va mazmunini ishlab chiqish;
- o'rganiladigan fan bo'yicha ma'lumotlarni moduli bloklarga ajratish;

- o'rganiladigan fan mavzusi, maqsadi, predmeti va modulli bloklarini e'tiborga olgan holda o'qitishning boshqarish algoritmini ishlab chiqish;
- o'qitishni takomillashtirishga olib keladigan ta'limning faol usullarini tanlash;
- muammoli va axborotli ta'lim elementlaridan foydalanish va hokazo.

Ma'lumki, darsni o'tishda, ayniqsa, unga ijodiy yondashishda ta'limiy, tarbiyaviy axborotli rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi dars mashg'ulotlarini olib borishda o'z faoliyatini tahlil qila bilish va shu asosida tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o'qituvchi o'zi o'tkazayotgan mashg'ulotlarning samaradorligini baholay olmasa, u holda yo'l qo'ygan kamchiliklarini ham sezmaydi va uning faoliyatida ijodiy yondashuv amalga oshmaydi.

Hozirgi kunda o'qituvchi uchun yangi texnologiyaga asoslangan integratsion dars o'tish, ijodiy faoliyat sari qadam qo'yilganligini ifoda etadi. Shu bilan birga ta'lim sifati va mo'ljallangan natijalarga erishish uchun integratsiyalangan texnologiyalar orqali bir qator vazifalarni bajarish majburiyati turadi.[2]

O'qituvchining dars jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarni qo'llashdagi ta'lim samaradorligini aniqlash ta'limni to'g'ri olib borayotganligini baholashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu sababli o'qitishda integratsiyalashgan texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash mezonlarini keltirib o'tamiz.

Bunda, birinchidan darsning quyidagi maqsad va vazifalari ko'rib chiqiladi:

1. Darslarning maqsad va vazifalari to'g'ri aniqlanganligi. Boshlang'ich sinflarda o'qish, ona tili, matematika, tabiat va boshqa o'quv fanlari mazmuniga qo'yilgan umumiy talablarga e'tibor beriladi.

2. Dars bo'yicha belgilangan maqsad va vazifalarning tanlab olingan o'qitish metodlariga mosligi aniqlanadi.

3. Ta'lim berish jarayonida tarbiyaning ham amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Bunda ta'lim va tarbiyauzviylikiga e'tibor beriladi.

4. Mavzuni yoritishda ma'naviy-axloqiy tarbiyani ham mujassamlashtirishga e'tibor berish. Bunda har qanday fanni o'qitishda milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishga e'tibor beriladi.

5. Darsda integratsion texnologiyani qo'llash jarayonida foydalaniladigan metod va vositalarning xilma-xil borishini ta'minlash hamda ular ichidan samaralisini tanlash. Bunda o'rganilayotgan fan (mavzu) mazmuni va o'qitish jarayoniga mos integratsion texnologiyalar to'planadi va ular ichidan pedagogik samarani kafolatlovchisi tanlab olinadi. Tanlashda uning o'rganilayotgan fan (mavzu) va ta'lim oluvchilarga mosligiga e'tibor berish kerak.

6. Ta'lim jarayoniga dunyoviy bilim asoslarini tadbqiq qila olish.

Boshlang'ich sinflarda faqat darslik bilan cheklanmay, mavzuga oid boshqa ma'lumotlarni ham qo'shib berish bolalarni dunyoqarashini shakllantirishga imkon yaratilgan edi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yangi pedagogik texnologiya vositalari va uning mohiyati bilan tanishtirishda o'yin faoliyatidan foydalanish qiziqarli hamda samarali usullardan hisoblanadi.

Ta'lim bosqichlaridan integrativ, o'yinga asoslangan ta'lim texnologiyalariga

beriluvchanligi bilan ajralib turadi. Pedagogika dars muddati, belgilangan tanaffuslar, o'qituvchini diqqat bilan tinglash zarurati va hokazolar.

Ta'limning o'yinli faol texnologiyalari aynan shu muammoni hal etishga qaratiladi. Ushbu texnologiya zamirida o'quvchini maktab ta'lim-tarbiyasiga hadiksirab qarashdan, o'qituvchi ko'rsatmalarini aynan takrorlashdan halos etish, uning ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish g'oyasi yotadi. Bunda ko'rsatmali illyustrativ metod darajasidagi ta'lim jarayoni amalga oshadi. Unda muammoli, qisman izlanuvchanlik, tanqidiy, mantiqiy yondoshuv, tahlil kabi metodlari ta'limning yetakchi uslubiga aylanmay qoladi. Mazkur holatni oldini olish uchun, o'quvchilarini ongli o'quv faoliyatiga jalb qilish uchun, undagi mantiqiy, tanqidiy hamda mustaqil fikrini o'stirish uchun o'yin texnologiyasiga asoslangan ta'lim metodini qo'llash samaralidir. SHunda yuqoridagi muammolar yechimi topiladi. Barcha davrda ta'limning asosiy muammosi o'quvchini o'ziga jalb eta olish, uni qiziqtirish, hayajonga solish, faoliyatidagi muhim o'rinni egallash bo'lib, o'qituvchi uchun o'ta muhim muammo ham aynan shular bo'lgan. Boshlang'ich ta'limda esa ushbu masalani hal qilish jiddiy tus olib yechilishi zaruriy muammolardan hisoblangan. Chunki, bolani darsga qiziqtirib olish, berish lozim bo'lgan bilimni uni ongiga etkaza olish, bolani hayotga tayyorlash, uni o'ylashga, tafakkur qilishga o'rgatish ayniqsa boshlang'ichda qiyin va ancha mashaqqat talab qiluvchi jarayondir.

Xullas, ta'limni integratsion texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan dars, ma'lum maqsadlarga asosan amalga oshirilishi zarur. Integratsiyalashgan jarayonni ya'ni, fanlararo aloqaning o'ziga xos maqsadlaridan kelib chiqqan holda darslarning harakterli xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib o'tilishi lozim.

#### **References:**

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-tom. "O'zbekiston" 2003 yil.
2. Musayev U. Integratsiya – ta'lim jarayonini sistemalashtirishning muhim printsiplari "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. 2000 yil, 4-son.
3. [www.pedagog.uz/](http://www.pedagog.uz/).